

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ  
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ  
БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ  
МАКТАБГАЧА ВА БОШЛАНГИЧ ТАЪЛИМ ФАКУЛЬТЕТИ  
МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ КАФЕДРАСИ**

**МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМДА УСТОЗ-ШОГИРД  
МУНОСАБАТЛАРИДА ИННОВАЦИОН  
ЁНДАШУВ**

*Илмий-назарий ва амалий туплам*

**Бухоро-2020**

Мактабгача таълимда устоз-шогирд муносабатларида инновацион ёндашув. Илмий-назарий ва амалий туплам . “Садриддин Салим Бухорий” Дурдона нашриёти, 2020.-192 с.

Тўпламда мактабгача таълимнинг долзарб муаммолари, устоз-шогирд муносабатларида инновацион ёндашув усул ва формалари ҳақида фикр-мулоҳазалар илмий асосларда ёритилган.

Тўпламда мактабгача таълим тизимида илмий ва амалий фаолият олиб бораётган касб эгалари ва Бухоро давлат университети, мактаб ўқитувчиларининг таълимдаги ўз шогирдлар билан хамкорликда олиб бораётган илмий фаолияти маколаларида ўз аксини топган.

Барча маколалар мутахассисларнинг эксперт такризлари асосида баҳоланган.

*Бош муҳаррир*

Педагогика фанлар номзоди, доцент Г.К.Хасанова

*Редакторлар:*

Г.Д.Ниязова, М.Б.Шарипова

*Такризчилар:*

Педагогика фарлари доктори, профессор М.Х.Махмудов

Филология фанлари номзоди, доцент Қ. Р. Тўхсанов

Бухоро давлат университети Мактабгача ва бошлангич таълим факультетининг навбатдан ташқари илмий кенгашида 2020 йил 6 июн тасдиқланди.

# **MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDA BOLALAR FAOLIYATINI TASHKIL ETISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING AHMIYATI**

**N.A.Hamroyeva-Maktabgacha ta'lim kafedrasini o'qituvchisi**

**U.Sh.Shodiyeva-14-7MT-19 guruh talabasi**

**Kalit so'zlar:** maktabgacha ta'lim, tarbiya, tarbiyachi, pedagog, rivojlanish, madaniyat, samaradorlik, bilim, ko'nikma, malaka, shakllantirish, xususiyat, individual, shaxs, ma'naviyat, qobiliyat, mahorat, intellekt, faoliyat, mehnat, guruh, jamoa,

**Ключевые слова:** дошкольное образование, воспитание, воспитательница, педагог, развивать, культура, эффективность, знание, навык, квалификация, формировать, особенность, индивидуальный, личность,

*духовность, талант, искусство, интеллект, деятельность, труд, группа, общественный.*

**Key words:** preschool education, education, educator, pedagogue, development, culture, effectiveness, science, skill, qualification, shapes, feature, individual, person, spirituality, ability, skill, intellect, activity, work, group, community.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tizimida bolalar faoliyatini tashkil etishning samaradorligini oshirish, tarbiyachi o'z qobiliyatlari va mahoratlarini rivojlantirishda muntazam izlanish o'z ustida ishlashning o'ziga xos hususiyatlari o'z aksini topgan. Muallif maktabgacha ta'lim samaradorligini oshirishda bolalar bilan bo'ladigan ta'lim- tarbiyaviy ishning butun tizimi maktabgacha tarbiya yoshidagi bola ongi, xulq- atvori, faoliyati va shaxsini astasekin qayta qurishga, bolalarda maktab ta'limining yangi sharoitlariga faol har tomonlama tayyorgarlikni shakllantirishga yo'llanganligi tahlil etgan.

**Аннотация:** в данной статье отражены вопросы повышения эффективности организации деятельности детей, непрерывная работа воспитателя над развитием своих способностей и навыков,. Автор проанализировал всю систему образовательно-воспитательной работы с детьми при повышении эффективности образования, постепенной перестройки сознания, характера и деятельности ребёнка дошкольного возраста.

**Annotation:** The article reflects the peculiarities of systematic research in improving the effectiveness of organizing children's activities in preschool education, developing the skills and abilities of the educator. The author emphasizes that the whole system of educational and educational work with children to improve the effectiveness of preschool education is to gradually rebuild the mind, behavior, activity and personality of pre-school age children, active preparation of new children analyzed the way forward for the formation.

Zamonaviy ta'lim jarayonida tahsil oluvchilarni ongli faoliyat yuritish, sog'lom mustaqil fikrlash va ta'lim olish ko'nikmasini rivojlantirish kelajakda ular tomonidan jamiyatimiz, davlatimiz taraqqiyoti uchun zarur, barkamol shaxslarni shakllanishida bosh omil bo'lib xizmat qiladi. 2017-2021 – yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora – tadbirdari to'g'risida O'zbekiston Prezidenti qarorida, Maktabgacha ta'lim sifatini oshirish, maktabgacha ta'lim muassasalarda bolalarni maktabga sifatli tayyorlashni tubdan yaxshilash, ta'lim-

tarbiya jarayoniga jahon amaliyotida keng qo'llaniladigan zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini joriy etish lozimligi qayt etilgan. Maktabgacha ta'lim sohasi uzlusiz ta'limning ilk bo'g'ini hisoblanadi va butun ta'lim –tarbiya tizimining asosiy maqsadi bo'lgan- barkamol avlodni tarbiyalashga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar faoliyatini tashkil etish samaradorligini oshirishda bolalarning faol faoliyatning barcha turlarini yanada takomillashtirish va bu asosda qimmatli ma'naviy sifatlarini mustaqilligini, uyushganlik jamoatchilikni shakllantirish ularni tarbiyalashning asosiy vazifalaridan biridir. Tarbiyachining raxbarligi faoliyat mazmunini va uni amalga oshirish usullarini yanada boyitishga, faoliyatni birgalikda rejalashtirish, faoliyat jarayonida hamkorlik qilish, umumiy intilishlar bilan ma'lum natijalarga erishish ko'nikmasini shakllantirish lozim. Faol faoliyatidagi bolalarning o'yin faoliyati, jumladan ijodiy o'yin faoliyatini muvaffaqiyatli egallaganliklarining ko'rsatkichi hisoblanadi, o'yinlarda ijtimoiy hayotning ijobiy hodisalarini aks ettirish, o'yinda kelishish, syujetni hamkorlikda aniqlash, rollarni haqgo'ylik bilan taqsimlash, o'yin muhitini mustaqil tayyorlash, syujetni faol rivojlantirish, o'yinda bir-birini tushinishga erishish, do'stona munosabatlarni qo'llab- quvvatlash, o'yining ma'nosini to'liq amalga oshirish, o'yinchoq va materiallarni joy-joyiga eslatishlarsiz olib borib qo'yish ko'nikmalarini shakllantirish. Qoidali o'yinlar ayniqsa etti yoshli bolalar o'rtasida keng tarqalgan o'yinlarda, bolalarning o'yin qoidalariga rioya qilishlari va o'ynovchilar o'rtasida do'stona, haqgo'y munosabatlarni o'rnata bilishlarini anglashga o'rgatish va bunda o'yin ko'nikmalarining shakllanganligi namoyon bo'ladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar faoliyatini tashkil etish samaradorligini oshirishda, ularning mehnat faoliyatlaridan tarbiyachi ularda mustaqillikni, tirishqoqlikni, uyushganlik va javobgarlikni xis qilish ma'suliyatini shakllantirib boradi. Tarbiyachi bolalar oldiga ularning shaxsiy individual xususiyatlaridan va bajara oladigan imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda, doimiy mehnat majburiyatlarini ya'ni o'ziga-o'zi xizmat ko'rsatish, navbatchilik, ish o'rnida tartibni saqlash va uni yaxshi bajarishini talab kilishi va nazoratdan chetda qolmasligi darkor. Navbatchiliklarni tarbiyachi guruh jamoasi fikriga tayangan holda, ishning sifat va natijasi, shuningdek, navbatchilarning o'z burchlariga ma'suliyatli munosabatlari, vazifalarni o'zaro adolatli taqsimlay olishlari, do'stona ishlay olishlari, madaniy xulq-atvor qoidalariga rioya qilishlarini baholaydi.

Bolalarning jamoa mehnatlari mazmuni va uyushtirilishi murakkablashib boradi. Bolalar guruhlarga birikib ishslashadi, guruh ichidagi ish ko'pincha hamkorlikdagi mehnat tarzida bajariladi. Tarbiyalanuvchi bolalarning jamoa mehnat faoliyati asoslarini muvaffaqiyatli egallaganliklari mehnatda mustaqillik va

uyushganlikni shakllanganligining ko'rsatkichi bolalarning mehnat maqsadini tushunishlari yoki narsalarni mustaqil o'zları qo'ya olishlari mehnat jarayoni bosqichlarini tarbiyachi bilan birgalikda rejalashtirishlari va uning natijasini tasavvur qilishlari, zarur uskuna va materiallarni ajratish, vazifalarni o'zaro tarbiyachi ko'magida taqsimlash, bolalarning shaxsiy individul xususiyatlaridan kelib chiqqan holda asosiy mehnat malaka va ko'nikmalarini egallashi, umumiy sur'atda ishlay olishlari, o'rtoqlariga hayrixohlikka namoyon qila olishlari va o'zaro yordam ko'rsata olish ko'nikmalarini shakllantirish maqsadga muvofiqdir.

Tarbiyachi bolalar mehnatiga rahbarlik qilar ekan, bolalardan jismoniy harakatni va vaqtini kam saflab ishda ko'p natijaga erishish, puxta bo'lishni, mehnat material va asbob-uskunalarini o'zlashtirishda chaqqon hamda zehnli bo'lishni mehnatda ishlatgan narsalarni joyiga saramjon qilib qo'yish ko'nikmasini shakllantirish lozim.

Maktabgacha yoshdagি bolalar faoliyatini tashkil etish samaradorligini oshirishda, bolalarga tushunarli bo'lган mehnat turlari bilan mustaqil shug'ullanish uchun mehnat burchagi tashkil etilishi va barcha zarur narsalarning guruh xonasida tartib bilan turishi va uni saqlash uchun bolalarda unga nisbatan mas'uliyat hissini shakllantirish lozim. Bu maqsadda bolalar har haftada guruh xonasini jamoa bo'lib yig'ishtirishda qatnashadilar, qo'llanma va kitoblarni muntazam tuzatib boradilar, navbatchilik qiladilar, kitob burchagini, bolalar ishlari ko'rgazmasini bezashda, guruh xonasini bayramga yasatishda ishtirok etadilar. Bu ishda bolalarning mehnatga bo'lган munosabatida estetik hissiyotlari, mehnat madaniyati, ham rivojlanib boradi. Ular bajargan ishlarini tozaligini, saramjonligini, o'zlarining yasagan narsalarini ehtiyoj qilishga, uzoq saqlashga g'amho'rlik qiladilar.

Maktabgacha yoshdagи bolalar faoliyatini tashkil etish samaradorligini oshirishda, muhim vazifa bolalarda o'qishga faol qiziqish va intilishni tarbiyalashdir. Shunday qilib, bolalar bilan bo'ladigan ta'lim- tarbiyaviy ishning butun tizimi maktabgacha tarbiya yoshidagi bola ongi, xulq- atvori, faoliyati va shaxsini asta-sekin qayta qurishga, bolalarda muktab ta'limining yangi sharoitlariga faol har tomonlama tayyorgarlikni shakllantirishga yo'llangandir.

## **Foydalaniqan adabiyotlar ro'yxati**

1. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017

164

yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti nutqi. G'G' Xalq so'zi gazetasi, 2017.16 yanvar, №11

2. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olivjanob xalqimiz bilan birga quramiz. "O'zbekiston", 2017.

3. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi – inson manfaatlarini ta'minlash taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. "O'zbekiston",

2017.

4. 2018 yil dekabr oyida Prezidentimiz Sh.Mirziyaevning Oliy majlis deputatlariga bo'lgan murojatnomasi

5. Xoliqov A.A. Pedagogik mahorat. – T.: IQTISOD-MOLIYA, 2011.

6. Pedagogika. M.Toxtaxodjaevaning umumiy tahriri ostida. – T.: O'zbekiston Faylasuflari Milliy jamiyati, 2010.

7. Ibragimov X.I., Abdullayeva Sh.A. Pedagogika nazariyasi. - T.: "Fan va texnologiyalar" nashriyoti, 2008.

8. Sodiqova Sh.A. "Maktabgacha pedagogika" 2012-yil

9. Hidoyatova D.A. "Maktabgacha pedagogika moduli bo'yicha o'quv uslubiy majmua" Tosh., 2018.

10. Shodmonova Sh. "Maktabgacha ta'lif pedagogikasi" Tosh., 2008. Fan va texnologiya nashriyoti